

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNALI

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245



Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vilniaus Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 251-sahifa.
2026-yil, sentabr.





MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

КУРПАЯНИДИ КОНСТАНТИН ИВАНОВИЧ

Стратегии цифровой трансформации в Европейском союзе и потенциал институционального трансфера Французского опыта в Узбекистан.....11

ERGASHEV RUSTAM RAJABOVICH

Ilmiy ishlanmalar asosida Spin-off korxonalarini tashkil etish va rivojlantirishning bosqichli boshqaruv modeli.....25

ABDURAXMANOVA MUQADDAS TOXTASINOVNA

Temir yo'l transporti korxonalarida ekologik-iqtisodiy samaradorlikni oshirishning ilg'or mexanizmlari.....34

ABDULLAYEV ILYOS AXMADOVICH, JABBOROV JAMOLIDDIN MUXAMMADJON O'G'LI

Surxondaryo viloyatida demografik jarayonlarning statistik tahlili.....44

XASANOV SANJARBEK ABDUMANNNOBOVICH

Sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya darajasini baholash uslubiyoti ("Farg'onaazot" AJ misolida).....50

ABDURAZAKOVA NARGIZA RIXSIBAYEVNA

Aksiyadorlik jamiyatlarida xususiy kapital rentabelligiga ta'sir etuvchi omillar: O'zbekistonning uchta aksiyadorlik jamiyati misolida panel tahlil.....57

SULTANOVA ZUXRA JAKSILIKOVNA

Qaraqalpaqstan Respublikasida region ekonomikasini rivojlantirishda IT park xizmatini amalga oshirish masalalari ham paydalanilmagan mumkinliklari.....69

ERGASHEV G'YOS BAXROM O'G'LI

Mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish zarurati.....76

URMANOVA UMIDA XAKIMDJANOVNA

Sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish holati va rivojlanish tendensiyalari.....87

SHAMSIDDINOVA DILNOZA SHAVKAT QIZI

O'zbekiston chirm poyabzal korxonalarida milliy brend qiymatini oshirishning marketing mexanizmlarini takomillashtirish.....97

MUSAYEV OZODJON SHAVKAT O'G'LI

Mehnat resurslarini boshqarishning zamonaviy usullari va ularning iqtisodiy samaradorligi.....106

XALIKCHAYEVA SADOKAT

Qum-shag'al mahsulotlarini realizatsiya qilishda soliq bazasini aniqlash metodologiyasi "Minimal narx" mexanizmining tatbiq chegaralarini takomillashtirish masalalari.....113

XUSANOV SHUXRAT BURXANOVICH

Moliyaviy hisobotlarni qalbakiylashtirish xavfi ko'rsatkichlari tizimini ishlab chiqish.....122





QUDRATOV ALISHER ALIJANOVICH, QODIRQULOVA SEVINCH TOIR QIZI

Qishloq xo'jaligida dukkakli mahsulotlarni yetishtirishda davlatning iqtisodiy tutgan o'rni.....133

IKROMOVA IRODA

Transport logistika korxonalari va koridorlari samaradorligini oshirishda milliy logistikani boshqarish markazi platformasi.....139

AXMADOVA IRODA MUZAFFAR KIZI

The economic role of professional tour guides in enhancing the quality of ecotourism services.....153

SODIQOVA NIGORA TURAYEVNA

Suv resurslari cheklangan sharoitda hududiy ixtisoslashuvni takomillashtirish bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan O'zbekiston sharoitida foydalanish.....165

АСРОРОВА МАВЛУДА АБДУШУКУРОВА

Кадровый потенциал в системе государственной научно-инновационной политики: сравнительный анализ опыта зарубежных стран.....175

KULIBOYEV AZAMAT SHONAZAROVICH

Davlat tibbiyot tashkilotlarida tibbiy xizmatlar kalkulyatsiyasini shakllantirish va xarajatlar hisobining uslubiy muammolari.....193

UMAROV JAVOHIR BAHODIR O'G'LI

Tovar operatsiyalari hisobini avtomatlashtirishda integratsiyalashgan axborot tizimlarining roli: jahon tajribasi misolida.....204

KADIROVA LAZOKAT YUREVNA

Davlat moliyaviy nazorati jarayonlarini sun'iy intellekt yordamida riskka yo'naltirilgan raqamli nazorat modeli asosida takomillashtirish.....212

BAXSHULLOYEV FERUZBEK

The economics of digital water management: a critical review.....226

TO'XTAYEV UMIDJON SHUHRAT O'G'LI

Xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish iqtisodiy mexanizmi amal qilish tamoyillari.....236

RAXIMOV ANVAR NORIMOVICH, MIRZAYOROVA HURIYAT

UBAYDULLAYEVNA

Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi tadbirkorligi samaradorligidagi hududiy tafovutlarni baholash.....244

XURRAMOV XOLBEK XURRAM O'G'LI

O'zbekistonning janubiy hududlarida anorchilik tarmog'ining rivojlanish tendensiyalari.....251





O'ZBEKISTONNING JANUBIY HUDUDLARIDA ANORCHILIK TARMOG'INING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

XURRAMOV XOLBEK XURRAM O'G'LI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: xurramovxolbek2@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0002-0959-117X>

Annotatsiya. Maqolada Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida anorchilikning 2020–2024-yillardagi rivojlanish tendensiyalari va unga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Anorzorlar maydoni kengaygan bo'lsa-da, yalpi hosil va hosildorlik pasaygani aniqlangan. Bunga suv ta'minoti, iqlim o'zgarishi, yosh anorzorlar ulushining ortishi va zamonaviy agrotekhnologiyalardan yetarli foydalanilmasligi sabab bo'lgan. Anorchilikni rivojlantirish uchun suv tejovchi texnologiyalar, sifatli ko'chatlar, saqlash va qayta ishlash infratuzilmasi hamda eksport imkoniyatlarini kengaytirish taklif etilgan.

Kalit so'zlar: anorchilik, anorzorlar, yalpi hosil, hosildorlik, Surxondaryo, Qashqadaryo, agrotekhnologiya, suv ta'minoti, kooperatsiya, qayta ishlash, eksport.

Аннотация. В статье анализируются тенденции развития гранатоводства в Сурхандарьинской и Кашкадарьинской областях в 2020–2024 годах и факторы, влияющие на них. Хотя площадь гранатовых плантаций расширилась, было обнаружено снижение валового урожая и урожайности. Это связано с нехваткой воды, изменением климата, увеличением доли молодых гранатовых плантаций и недостаточным использованием современных агротехнологий. Для развития гранатоводства предлагаются водосберегающие технологии, качественные саженцы, инфраструктура хранения и переработки, а также расширение экспортных возможностей.

Ключевые слова: гранатоводство, гранатовые плантации, валовой сбор, урожайность, Сурхандарья, Кашкадарья, агротехнологии, водоснабжение, кооперация, переработка, экспорт.

Abstract. The article analyzes the development trends of pomegranate cultivation in the Surkhandarya and Kashkadarya regions for 2020-2024 and the factors influencing them. Although the area of pomegranate plantations has expanded, the gross harvest and yield have decreased. This is due to water shortages, climate change, an increase in the proportion of young pomegranate plantations, and insufficient use of modern agricultural technologies. To develop pomegranate cultivation, it is proposed to expand water-saving technologies, high-quality seedlings, storage and processing infrastructure, and export opportunities.

Keywords: pomegranate growing, pomegranate plantations, gross harvest, yield, Surkhandarya, Kashkadarya, agrotechnology, water supply, cooperation, processing, export.

KIRISH

O'zbekistonda meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirish qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, aholi daromadlarini oshirish, ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash va eksport salohiyatini kengaytirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tarmoq tarkibida anorchilik o'zining mahsulot sifati, qayta ishlash imkoniyatlari, ichki va tashqi bozordagi talabi hamda ayrim hududlarning tabiiy-iqlim sharoitiga mosligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mamlakatning janubiy hududlari, jumladan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida anorchilikni rivojlantirish





uchun mavjud ishlab chiqarish tajribasi va tabiiy imkoniyatlardan samarali foydalanish muhimdir. Anorchilik samaradorligiga agrotehnologiya, suv ta'minoti, mahsulot sifati, ishlab chiqarishni boshqarish va bozor omillarining o'zaro ta'siri sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi ilmiy tadqiqotlarda asoslangan [1]. Anor mevasining oziqaviy xususiyatlari va qayta ishlash imkoniyatlari uning bozor salohiyatini shakllantiruvchi muhim omillardan hisoblanadi [2].

Anorchilikni barqaror rivojlantirish faqat anorzorlar maydonini kengaytirish bilan cheklanmaydi. Ishlab chiqarish natijalariga suv ta'minoti, tuproq-iqlim sharoiti, nav tarkibi, sifatli ko'chatlardan foydalanish, o'g'itlash tizimi, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash, zamonaviy agrotehnologiyalarni qo'llash kabi omillar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, mahsulotni yetishtirishdan keyingi jarayonlar, ya'ni saqlash, saralash, qadoqlash, tashish va sotish tizimining holati ham tarmoq natijadorligini belgilaydi. Mahsulotni sotish jarayonida logistik zanjirni takomillashtirish va ishlab chiqaruvchilarning bozor bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalarini kuchaytirish muhim hisoblanadi [5]. Ishlab chiqaruvchilar o'rtasida kooperatsiya munosabatlarini shakllantirish mahsulotni birgalikda saqlash, saralash, qadoqlash va sotish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin [6].

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonning janubiy hududlarida anorchilik tarmog'ining rivojlanish tendensiyalarini baholash, anorzorlar maydoni, yalpi hosil va hosildorlik ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarni aniqlash, ishlab chiqarish va bozor faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni belgilash hamda tarmoqni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Anorchilikka bag'ishlangan tadqiqotlar tarmoq samaradorligi ishlab chiqarish, resurslardan foydalanish, mahsulot sifati va bozor munosabatlari bilan uzviy bog'liq holda shakllanishini ko'rsatadi. Xorijiy tadqiqotlarda anor yetishtirishda agrotehnologiyalarni takomillashtirish, suv ta'minoti, o'simliklarni kasallik va zararkunandalardan himoya qilish, mahsulot sifati va ishlab chiqarishni boshqarish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, anorchilikning iqtisodiy natijalariga bozor sharoiti, mahsulotni sotish va logistika tizimi ham ta'sir ko'rsatishi asoslangan [1]. Anorning oziqaviy xususiyatlari va qayta ishlash imkoniyatlari uning bozordagi talabini shakllantiruvchi muhim omillardan hisoblanadi [2]. Nav tanlash, sifatli ko'chatlardan foydalanish, bog'larni parvarishlash texnologiyasi va ishlab chiqarish jarayonini biologik xususiyatlarga mos tashkil etish yuqori va barqaror hosil olishning asosiy shartlari sifatida qaraladi [3]. Meva yetilish davrida uning sifat ko'rsatkichlarining o'zgarishi mahsulotni o'z vaqtida yig'ish, saralash va bozorga chiqarish zaruratini oshiradi [4].

Meva-sabzavotchilik mahsulotlarini sotishda logistik zanjirni takomillashtirish, ortiqcha vositachilik bo'g'inlarini qisqartirish va ishlab chiqaruvchilarning bozor bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalarini kuchaytirish mahsulot realizatsiyasi samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [5]. Ishlab chiqaruvchilarni kooperatsiya asosida birlashtirish





mahsulot hajmini shakllantirish, saqlash, saralash, qadoqlash va sotish jarayonlarini muvofiqlashtirish imkonini beradi [6]. Meva-sabzavotchilikda qo'shilgan qiymat zanjirini rivojlantirish mahsulotni xom ashyo sifatida realizatsiya qilishdan tashqari, uni qayta ishlash va yuqori qiymatli mahsulotga aylantirish orqali qo'shimcha natija olish imkonini yaratadi [7]. Eksport yo'nalishida mahsulot sifati, qadoqlash, sertifikatlash va xalqaro standartlarga muvofiqlik tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini belgilaydi [8]. Mazkur ilmiy yondashuvlardan kelib chiqib, anorchilik rivojlanishini baholashda faqat anorzorlar maydoni yoki yalpi hosil hajmini emas, balki hosildorlik, resurslardan foydalanish, mahsulotni saqlash va qayta ishlash, logistika, sotish kanallari hamda eksport imkoniyatlarini kompleks o'rganish talab etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda statistik ma'lumotlarni taqqoslash, dinamik tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va so'rovnoma usullaridan foydalanildi. Anorchilikning rivojlanish holatini baholashda 2020–2024-yillardagi anorzorlar maydoni, yalpi hosil va hosildorlik ko'rsatkichlari asos qilib olindi. Hududlar kesimida Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining respublika anorchiligidagi o'rni tahlil qilindi. Tadqiqotning amaliy qismida Surxondaryo viloyatining Sherobod va Angor tumanlari hamda Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida 200 nafar respondent ishtirokida so'rovnoma o'tkazilgan. So'rovnomada ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari ishtirok etgan bo'lib, unda anorchilikdagi ishlab chiqarish resurslari, suv ta'minoti, ko'chatlar, agronomik xizmatlar, mahsulotni saqlash, sotish va eksport qilish bilan bog'liq masalalar o'rganilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillarga ko'ra, 2020–2024-yillarda O'zbekistonda anorzorlar maydoni sezilarli darajada kengaygan. Respublika bo'yicha mazkur ko'rsatkich 7390 gektardan 9229 gektargacha oshgan bo'lib, o'sish 24,9 foizni tashkil etgan. Ayniqsa, Surxondaryo viloyatida anorzorlar maydoni 2325 gektardan 3567 gektargacha ko'payib, 53,4 foizlik o'sish kuzatilgan. Qashqadaryo viloyatida esa anorzorlar maydoni 789 gektardan 898 gektargacha oshgan. Shu bilan birga, respublikada meva beradigan anorzorlar maydoni 2020-yildagi 5224 gektardan 2024-yilda 6048 gektargacha oshgan.

Anorzorlar maydonining kengayishiga qaramasdan, yalpi hosil va hosildorlik ko'rsatkichlarining mutanosib o'sishi kuzatilmagan. Bu holat tarmoq rivojida ekstensiv o'sish bilan bir qatorda mavjud bog'larning ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish masalasi ham dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2020–2024-yillarda respublikada anorzorlar maydoni 1839 gektarga kengaygan bir paytda yalpi hosil 82,741 ming tonnadan 61,537 ming tonnaga, hosildorlik esa 158,4 sentnerdan 101,7 sentnergacha kamaygan. Surxondaryo viloyatida anorzorlar maydoni 1242 gektarga kengaygan bo'lsa-da, yalpi hosil 21,110 ming tonnadan





13,995 ming tonnaga, hosildorlik 134,9 sentnerdan 75,8 sentnergacha pasaygan. Qashqadaryo viloyatida ham maydon 109 gektarga oshgan, biroq yalpi hosil 7,697 ming tonnadan 6,234 ming tonnaga, hosildorlik 103,7 sentnerdan 79,5 sentnergacha kamaygan.

1-jadval

O'zbekiston, Surxondaryo va Qashqadaryoda anorchilikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

Hudud	Anorzor maydoni, ga		Yalpi hosil, ming t		Hosildorlik, s/ga	
	2020 yil	2024 yil	2020 yil	2024 yil	2020 yil	2024 yil
O'zbekiston Respublikasi	7390	9229	82,741	61,537	158,4	101,7
Qashqadaryo viloyati	789	898	7,697	6,234	103,7	79,5
Surxondaryo viloyati	2325	3567	21,110	13,995	134,9	75,8

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Mazkur natijalar anorzorlarni kengaytirishning o'zi tarmoq ishlab chiqarish natijalarini avtomatik ravishda oshirmasligini ko'rsatadi. Dissertatsiyada anorzorlar maydoni kengayishiga qaramasdan yalpi hosil va hosildorlikning pasayishi suv resurslari taqchilligi, iqlim o'zgarishi, yosh anorzorlar ulushining ortishi va intensiv agrotexnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmaganligi bilan bog'langan. Yosh bog'lar ulushining ko'payishi qisqa muddatda umumiy hosildorlik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir qilishi mumkin, chunki ularning bir qismi hali to'liq hosilga kirmagan bo'ladi. Shu sababli anorchilikni rivojlantirishda yangi maydonlarni tashkil etish bilan bir qatorda mavjud va hosilga kirgan anorzorlarning mahsuldorligini oshirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Tadqiqotning so'rovnoma natijalari ham mazkur xulosani to'ldiradi. 200 nafar respondentning 68 foizi mineral o'g'itlar narxining yuqoriligini, 61 foizi o'g'itlar sifati bo'yicha kafolatning yetarli emasligini, 57 foizi sifatli va eksportbop navlar ko'chatlarining yetishmasligini asosiy muammolardan biri sifatida qayd etgan. Suv va sug'orish bilan bog'liq muammolar 52 foiz, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash xarajatlarining yuqoriligi 47 foiz, malakali agronomik maslahat xizmatlarining yetishmasligi 41 foiz va aylanma mablag'lar yetishmasligi 38 foiz respondent tomonidan ko'rsatilgan. Bu natijalar anorchilikdagi asosiy cheklovlar birgina agrotexnologik omil bilan izohlanmasligini, balki resurslar qiymati, sifatli ko'chatlar ta'minoti, suv, moliyaviy imkoniyat va maslahat xizmatlari kabi omillarning bir vaqtda ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, suv ta'minoti muammosi iqlim o'zgarishi sharoitida yanada dolzarblashib, janubiy hududlarda anorchilikning barqarorligiga ta'sir etuvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Anorchilikda mahsulotni sotish va bozorga chiqarish bilan bog'liq muammolar ham tarmoq rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 62 foizi mahsulot xarid narxlarining pastligini, 56 foizi vositachilarga yuqori darajada bog'liqlikni, 49 foizi mahsulotni





saqlash sig'implarining yetishmasligini va 45 foizi transport-logistika xarajatlarning yuqoriligini asosiy muammolar qatorida qayd etgan. Eksport bozorlari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalarning cheklanganligi 42 foiz, qadoqlash va saralashni tashqi bozor talablariga moslashtirish xarajatlarning yuqoriligi 37 foiz hamda bozor konyunkturasi to'g'risida axborotning yetarli emasligi 31 foiz respondent tomonidan ko'rsatilgan. Demak, anorchilikda ishlab chiqarish hajmini oshirishning o'zi yetarli emas, mahsulotni saqlash va sotish jarayonlarini tashkil etish ham ishlab chiqaruvchining yakuniy natijasiga ta'sir qiluvchi muhim bo'g'in hisoblanadi.

Mahsulotni qayta ishlash va eksport qilish imkoniyatlari bo'yicha so'rovnoma natijalari ham tarmoqda qiymat zanjirining keyingi bosqichlarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Respondentlarning 58 foizi qayta ishlash korxonalarining yetarli emasligini, 47 foizi eksport talablariga mos qadoqlash imkoniyatlarining cheklanganligini, 43 foizi xalqaro sertifikatlash xarajatlarning yuqoriligini, 39 foizi eksportda vositachilarga bog'liqlikni, 35 foizi tashqi bozor talablari haqida bilim va axborotning yetarli emasligini hamda 31 foizi eksport logistikasi xarajatlarning yuqoriligini qayd etgan. Bu holat anorchilikda qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatlaridan to'liq foydalanish uchun saqlash, qayta ishlash, qadoqlash, sertifikatlash va logistika infratuzilmasini o'zaro bog'liq holda rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Anorchilikni rivojlantirishning birinchi ustuvor yo'nalishi mavjud anorzorlarda hosildorlikni oshirish bilan bog'liq. Buning uchun suv tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etish, sifatli ko'chatlardan foydalanish, o'simliklarni oziqlantirish va himoya qilish tizimini takomillashtirish hamda intensiv agrotexnologiyalarni kengroq qo'llash talab etiladi. Intensiv texnologiyalardan foydalanishning kengayishi hosildorlikni oshirishga xizmat qilishi, yuqori hosil esa doimiy xarajatlarning nisbiy ulushini kamaytirish orqali ishlab chiqarish natijadorligini yaxshilashi mumkin.

Ikkinchi muhim yo'nalish mahsulotni sotish va qiymat zanjirini takomillashtirishdir. Ishlab chiqaruvchilarning kooperatsiya asosida birlashishi mahsulotni birgalikda yig'ish, saralash, saqlash, qadoqlash va sotish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu, ayniqsa, kichik ishlab chiqaruvchilarning bozordagi imkoniyatlarini oshirish va vositachilarga bog'liqlikni kamaytirish nuqtai nazaridan muhimdir [6]. Mahsulotni qayta ishlash korxonalarini rivojlantirish orqali anorni qayta ishlangan mahsulotlar shaklida bozorga chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish qo'shilgan qiymatni oshirishga xizmat qilishi mumkin [7].

Uchinchi yo'nalish eksport salohiyatini oshirish bilan bog'liq. Bu borada mahsulot sifati, saralash, qadoqlash, sertifikatlash va xalqaro standartlarga muvofiqlik masalalariga kompleks yondashish talab etiladi. Eksportbop mahsulot ishlab chiqarish bilan bir qatorda tashqi bozor talablari to'g'risida axborot ta'minotini yaxshilash, eksportyorlar va ishlab chiqaruvchilar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni rivojlantirish ham muhimdir [8]. Mazkur choralar mahsulotni





ichki bozorda realizatsiya qilishdan tashqi bozorlarga chiqarishgacha bo'lgan jarayonni yaxlit qiymat zanjiri asosida tashkil etish imkonini beradi.

Janubiy hududlarda anorchilik mahsulotlarini hududiy xususiyatlar asosida pozitsiyalash ham istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Dissertatsiya tadqiqotida Surxondaryo va Qashqadaryo hududlarida "Sherobod anori" va "Kitob anori" kabi agrobrendlarni shakllantirish imkoniyatlari asoslangan. Hududiy agrobrend mahsulotning kelib chiqishi, sifati va o'ziga xos xususiyatlarini iste'molchiga yetkazish hamda uni bozorda farqlash vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin.

XULOSA

Tadqiqot natijalari O'zbekistonning janubiy hududlarida anorchilik tarmog'i maydon jihatidan kengayib borayotganini ko'rsatdi. 2020–2024-yillarda respublikada anorzorlar maydoni 7390 gektardan 9229 gektargacha, ya'ni 24,9 foizga oshgan bo'lsa, Surxondaryo viloyatida mazkur ko'rsatkich 2325 gektardan 3567 gektargacha ko'payib, 53,4 foizlik o'sishni tashkil etgan. Qashqadaryo viloyatida ham anorzorlar maydoni 789 gektardan 898 gektargacha oshgan. Biroq anorzorlar maydonining kengayishi yalpi hosil va hosildorlikning mutanosib o'sishiga olib kelmagan. 2020–2024-yillarda respublikada yalpi hosil 82,741 ming tonnadan 61,537 ming tonnaga, hosildorlik 158,4 sentnerdan 101,7 sentnergacha pasaygan. Surxondaryo viloyatida yalpi hosil 21,110 ming tonnadan 13,995 ming tonnaga, hosildorlik 134,9 sentnerdan 75,8 sentnergacha kamaygan. Qashqadaryo viloyatida ham ushbu ko'rsatkichlarda pasayish kuzatilgan.

Tahlillar asosida anorchilikdagi mazkur nomutanosiblikning asosiy omillari sifatida suv resurslari taqchilligi, iqlim o'zgarishi, yosh va hali to'liq hosilga kirmagan anorzorlar ulushining ortishi hamda intensiv agrotexnologiyalarni joriy etish darajasining yetarli emasligi aniqlandi. Shu bilan birga, so'rovnoma natijalari mineral o'g'itlar narxining yuqoriligi, sifatli ko'chatlar yetishmasligi, suv ta'minoti, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash xarajatlari, agronomik xizmatlar va aylanma mablag'lar bilan bog'liq muammolar ham ishlab chiqarish natijalariga ta'sir qilayotganini ko'rsatdi.

Mahsulotni sotish va eksport qilish jarayonida past xarid narxlari, vositachilarga bog'liqlik, saqlash sig'imlarining yetishmasligi, transport-logistika xarajatlarining yuqoriligi, eksport bozorlari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalarning cheklanganligi, qayta ishlash korxonalarining yetarli emasligi va eksport talablariga mos qadoqlash imkoniyatlarining cheklanganligi asosiy muammolar sifatida namoyon bo'ldi. Shu sababli anorchilikni rivojlantirishda ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash, qadoqlash, logistika va eksport jarayonlarini bir-biridan ajratmagan holda yagona qiymat zanjiri sifatida tashkil etish zarur.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, janubiy hududlarda anorchilikni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari sifatida mavjud anorzorlarda hosildorlikni oshirish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, sifatli va eksportbop ko'chatlar ta'minotini yaxshilash, intensiv agrotexnologiyalarni





kengaytirish, ishlab chiqaruvchilar kooperatsiyasini rivojlantirish, saqlash va qayta ishlash infratuzilmasini takomillashtirish, zamonaviy qadoqlash va logistika tizimlarini joriy etish hamda tashqi bozorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni kengaytirishni belgilash mumkin. Shuningdek, "Sherobod anori" va "Kitob anori" kabi hududiy agrobrendlarni shakllantirish orqali mahsulotning hududiy xususiyatlarini bozorda namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Umuman, anorchilik tarmog'ining barqaror rivojlanishi yangi anorzorlar maydonini kengaytirish bilan bir qatorda, mavjud bog'larning hosildorligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va mahsulotni ishlab chiqaruvchidan yakuniy bozorgacha bo'lgan jarayonlarni muvofiqlashtirishga bog'liq. Janubiy hududlarning mavjud salohiyatidan samarali foydalanish uchun ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini birgalikda rivojlantirish anorchilik tarmog'ining barqarorligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Raimondo M. L., Lops F., Tarantino A., Bellantuono N., Carlucci A., Bimbo F. The Current State of Italian Pomegranate Production: Agronomic, Crop Protection, Economic, and Managerial Perspectives // *Agronomy*. – 2025. – Vol. 15(4). – 826 p.
2. Stover E., Mercure E. The Pomegranate: A New Look at the Fruit of Paradise // *HortScience*. – 2007. – Vol. 42(5). – pp. 1088–1092.
3. Holland D., Hatib K., Bar-Ya'akov I. Pomegranate: Botany, Horticulture, Breeding // *Horticultural Reviews*. – 2009. – Vol. 35. – pp. 127–191.
4. Fawole O. A., Opara U. L. Developmental Changes in Maturity Indices of Pomegranate Fruit // *Scientia Horticulturae*. – 2013. – Vol. 159. – pp. 152–161.
5. Dilmurodov O. G. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida meva-sabzavotchilik majmuida mahsulot sotishning logistik zanjirini takomillashtirish: diss. ... i.f.f.n. (PhD). – T., 2010. – 152 b.
6. Murodov Sh. M. Meva-sabzavot mahsulotlarini sotish sohasida kooperatsiya munosabatlarini shakllantirish: avt. diss. ... i.f.f.n. (PhD). – T., 2020. – 51 b.
7. Eshmatov S. K. Meva-sabzavotchilik tarmog'ida qo'shilgan qiymat zanjirini rivojlantirish yo'nalishlari: diss. ... i.f.f.n. (PhD). – T., 2021. – 191 b.
8. Xolmurodova G. M. Xalqaro standartlar asosida meva-sabzavotchilik tarmog'ining eksport imkoniyatlarini oshirish yo'nalishlari: avt. diss. ... i.f.f.n. (PhD). – T., 2025. – 59 b.



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjournal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669225 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy